

**RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLARNING GENDER
XUSUSIYATLARI TADQIQI DOLZARBLIGI XUSUSIDA**

Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Katta o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida nutqiy aktning turli xususiyatlari tahliliga yondashuv struktur tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, semantik tadqiqotlarda yuzaga chiqqan yangi natijalar ta'sirida shakllanmoqda. Pirovardida nutqiy akt va uning komponentlarini antropologik nuqtai nazardan tahlil qilish, xususan, ruhiy holat mazmuniga ega nuqtiiy aktlarning gender xususiyatlarini turli tillar tizimida chog'ishtirish, ushbu xususiyatlarini aniqlash, tizimlashtirish va tarjima qilish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarbdir.

Kalit so'zlar: gender, ruhiy holat, nutqiy akt, pragmaligvistika, antropotsentrik tilshunoslik

Аннотация. В мировой лингвистике подход к анализу различных признаков речевого акта формируется под влиянием новых результатов, появляющихся в структурной лингвистике, лингвокультурологии, лингвопрагматике и семантических исследованиях. В конечном итоге важно проанализировать речевой акт и его компоненты с антропологической точки зрения, в частности, сопоставить гендерные характеристики речевых актов с содержанием психического состояния в разных языковых системах, а также разработать рекомендации по выявлению, систематизации и переводу этих характеристик.

Ключевые слова: гендер, психическое состояние, речевой акт, антропоцентрическая лингвистика

Annotation. In world linguistics, the approach to the analysis of various features of the speech act is being formed under the influence of new results emerging



in structural linguistics, linguistic and cultural studies, linguistic pragmatics, and semantic research. Ultimately, it is urgent to analyze the speech act and its components from an anthropological perspective, in particular, to compare the gender features of speech acts with the content of a mental state in different language systems, and to develop recommendations for identifying, systematizing, and translating these features.

Key words: *gender, mental state, speech act, pragmatics, anthropocentric linguistics*

Dunyo tilshunosligida nutqning gender ko'rsatkichlarini turli tillar kesimida tahlil qilish, tarjima variantlari va semantik tarkibida gender emasi mavjud leksik birliklarning leksikografik talqinini tahlil qiluvchi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar asosan gender ko'rsatkichi yaqqol ifodalangan lisoniy birliklarni nutqdan ajratilgan holda tahlil qiladi. Nutqiy akt milliy, madaniy, axloqiy, mental omillarning lisoniy birliklar vositasida voqelanishini namoyon qiluvchi jonli jarayondir. Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini yoritish vositasida tilning voqelanishda inson omili bilan bog'liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini sharhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq insoniyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar, jamiyat munosabatlarida eng muhim ahamiyat kasb etadi. Til ijtimoiy hodisa o'laroq jamiyatda voqelanib insoniyatning eng muhim muloqot ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Muloqot jarayonining kommunikativ-pragmatik jihatlari pragmatolingvistikaning asosiy obyekti sifatida maxsus tadqiq etiladi¹. Shuningdek, bu masalalar qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, uslubiyat, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika va tarjima

¹Grice P. Method in Philosophical psychology (From the Banal to the Bizarre)', Proceedings and Addresses of the American Philosophical Association, 48: 23–53, 1975; Grice P. Further Notes on Logic and Conversation', in Syntax and Semantics: Pragmatics, v 9, P. Cole (ed.), New York: Academic Press, 1978; Grice P. Presupposition and Conversational Implicature', in Radical Pragmatics, P. Cole (ed.), New York: Academic Press, 1981; Atlas D. Logic, Logic, Meaning and Conversation: Semantical Underdeterminacy, Implicature, and their Interface, Oxford: Oxford University Press, 2005; Арутюнова Н. Истоки, проблемы и категории прагматики [Текст] // Новое в зарубежной лингвистике / общ. ред. Е. В. Падучевой. – М.: Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 28; Кифер Ф. Роли прагматики в лингвистическом описании // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI, М.: Прогресс, 1985; Jacob L. "Pragmatics: Overview". Encyclopedia of language & linguistics (2nd ed.). Amsterdam: Elsevier. pp. 51–62.- 2006; Wierzbicka A. Cross-cultural Pragmatics. The Semantics of Human Interaction. Berlin, New York: Mouton de Gruyter, 2006.



nazariyasi doirasida o'rganilgan. Ayol va erkak jinsiga mansub shaxslarning nutqidagi farqlar, ularning idrok va ruhiyatidagi tafovutlar nutqda qanday aks etishi, ushbu o'ziga xosliklarni nutqda ifodalovchi vosita hamda mexanizmlar jahon va o'zbek tilshunoslarini qiziqitirib kelgan masalalardan hisoblanadi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida matnning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tahlil qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, gender masalasi tadqiqi ham badiiy matn doirasida olib boriladi. Milliy adabiyotda gender xususiyatlarining namoyon bo'lishi tadqiqotchilarni qiziqtirgan mavzulardan biri². Pragmalingvistika nutqni inson subyekti va lisoniy qonuniyat (obyektivlik) prizmasida ko'zdan kechirar ekan muayyan mazmundagi nutqiy aktlar va ulardagi aniq bir xususiyat doirasida cheklanish xulosalarning aniq, yaxlit va tizmiy bo'lishini, tadqiqotning izchilligini ta'minlaydi. Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari doirasida chog'ishtirish vositasida individual nutqqa obyektiv baho berish zarurati mavjud.

Ingliz va o'zbek tilidagi ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini lingvokognitiv, lingvopsixologik, lingvomadaniy jihatdan ochib berish, ikki til vakillarining genderni tushunish va lisoniy ifodalashdagi parallellar hamda farqlarni belgilashdan uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

ingliz va o'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarning gender xususiyatlari tadqiqi xulosalarini umumlashtirish;

ingliz va o'zbek tilida ruhiy holatni ifodalashda gender xususiyatlari namoyon bo'lishining kognitiv va lingvopsixologik asoslarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tilida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlardagi gender ko'rsatkichlarining milliy-madaniy xususiyatlarini asoslash;

²Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy enciklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009; Turniyazov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. Samarqand. 2006; Yuldasheva X. Badiiy matnda shaxs gender xususiyatlarining namoyon bo'lishi// So'z san'ati xalqaro jurnali, 4-jild, 4-son. Toshkent, 2021 – B.97-102; Murodova, D. (2024). An Artistic Image In Uzbek "Women's Prose" Based On The Stories Of Zulfiya Kuro'lba Kizi. Modern Science and Research, 3(2), 1172–1177; Xo'jayev N. Abdulla Oripov she'riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2022 – 281 b. Abdullayeva D. Gender tushunchasi va uning o'zbek tilidagi xususiyatlari// Central asian journal of education and innovation - Volume 2, Issue 4, Part 2 April 2023 – pp. 135-139.



ingliz va o'zbek tilida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender ko'rsatkichlarini chog'ishtirish;

ingliz va o'zbek tilida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini o'zaro tarjimasini takomillashtirish yuzasidan nazariy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mamlakatimizdagi bugungi ijtimoiy taraqqiyot, axborot-kommunikatsiya sohasini ribojlantirishga qaratilgan strategik harakatlarning amalga oshirilishi, o'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi mustahkamlanishi, milliy-madaniy qadriyatlarimizning jahon miqyosida targ'ib qilinayotgani tilning antropotsentrik xususiyatlarini namoyon qiluvchi mavzularga e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Bu borada mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlari o'rinlidir: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"³. Tadqiqot natijasida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini o'rganish, ingliz va o'zbek tillari doirasida qiyoslash asnosida yosh avlod ongiga vatanparvarlik, ona tiliga, ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'ulari singdiriladi hamda bugungi globallashuv jarayonida zamon talablariga javob bera oladigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan, keng fikrlaydigan kadrlar yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Abdullayeva D. Gender tushunchasi va uning o'zbek tilidagi xususiyatlari// Central asian journal of education and innovation - Volume 2, Issue 4, Part 2 April 2023 – pp. 135-139.

Atlas D. Logic, Logic, Meaning and Conversation: Semantical Underdeterminacy, Implicature, and their Interface, Oxford: Oxford University Press, 2005.

Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy enciklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.

³Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақидаги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида" ги ПҚ-4479-сон Қарори. uza.uz.



Grice P. Further Notes on Logic and Conversation', in Syntax and Semantics: Pragmatics, v 9, P. Cole (ed.), New York: Academic Press, 1978.

Grice P. Method in Philosophical psychology (From the Banal to the Bizarre)', Proceedings and Addresses of the American Philosophical Association, 48: 23–53, 1975.

Grice P. Presupposition and Conversational Implicature', in Radical Pragmatics, P. Cole (ed.), New York: Academic Press, 1981.

Jacob L. "Pragmatics: Overview". Encyclopedia of language & linguistics (2nd ed.). Amsterdam: Elsevier. pp. 51–62.- 2006.

Turniyazov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi.Samarqand.2006; Yuldasheva X. Badiiy matnda shaxs gender xususiyatlarining namoyon bo'lishi// So'z san'ati xalqaro jurnali, 4-jild, 4-son. Toshkent, 2021 – B.97-102.

Wierzbicka A. Cross-cultural Pragmatics. The Semantics of Human Interaction. Berlin, New York: Mouton de Gruyter, 2006.

Xo'jayev N. Abdulla Oripov she'riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2022 – 281 b.

Арутюнова Н. Истоки, проблемы и категории прагматики [Текст] // Новое в зарубежной лингвистике / общ. ред. Е. В. Падучевой. – М. : Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 28.

Кифер Ф. Роли прагматики в лингвистическом описании // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI, М.: Прогресс, 1985.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақидаги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги ПҚ-4479-сон Қарори. uza.uz.